O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

«TASDIQLAYMAN»
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
__________ prof. R.N.To‘rayev
2024-yil "___" ________

# GEOGRAFIK O‘LKASHUNOSLIK FANINING O‘QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 500000 – Tabiiy fanlar, matematika va statistika |
| Ta’lim sohasi: | 530000 – Fizika va tabiiy fanlar |
| Ta’lim yo‘nalishi: | 60530400 – Geografiya |

Termiz-2024

| Fan/modul kodi GO'LB304 | O'quv yili 2024-2025 | Semestr 6 | ECTS - Kreditlar 4 | |
|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi tanlov | Ta'lim tili O'zbek | | Haftadagi dars soatlari 4 soat | |
| 1. Fanning nomi | | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| Geografik o'lkashunoslik | | 60 | 60 | 120 |

2

**I. Fanning mazmuni**

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga o'lkashunoslik ishlarini tashkil etish, uyushtirish, o'z o'lkasi tabiati va xo'jaligini o'rganish usullari va shakllari, maktab geografiya darslari jarayonida va maktabdan tashqari o'lkashunoslik ishlarini tashkil etish masalalari bilan tanishtirishdan iborat.

Fanning vazifasi - talabalarga o'lkashunoslik ishlarini tashkil etish bo'yicha, shuningdek, maktab geografiyasi darslarida va darsdan tashqari vaqtda o'lkashunoslikka oid to'garaklar, viktorinalar, ilmiy ma'ruzalar, ekskursiyalar uyushtirish, tabiiy jarayonlarga oid kuzatishlar olib borish bo'yicha malaka va tajriba hosil qilishdan iborat.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**
**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: (THEMES)**

**1-mavzu: Geografik o'lkashunoslik kursining maqsadi va vazifalari, o'rganish ob'ekti**

"Geografik o'lkashunoslik"ning tadqiqot ob'ekti va predmeti. Fanning maqsadi va vazifalari, qisqacha rivojlanish tarixi, uning boshqa fanlar bilan bog'liqligi.

**2-mavzu: Turkiston o'lkasining rus sayyohlari tomonidan o'rganilish tarixi**

Rus sayyohlarining Turkiston ziyolilari bilan munosabatlari. Turkiston o'lkasi tabiatining o'rganilishi. Arxeologik yodgorliklar va qo'lyozma asarlarning o'rganilishi.

**3-mavzu: O'lkashunoslik, uning turlari, geografik o'lkashunoslik**

O'lkashunoslikning turlari. Geografik o'lkashunoslik.

**4-mavzu: O'lkashunoslikning asosiy manbalari**

Arxeologiyaga oid ma'lumotlarni to'plash. O'lkashunoslikda etnografiyaga oid ma'lumotlar. Tomonimikaga oid ma'lumotlardan o'lkashunoslikda foydalanish. O'lkashunoslikni o'rganishda arxivshunoslikning o'rni.

**5-mavzu: O'lkani o'rganishda toponimik ma'lumotlardan foydalanish**

Toponimika tushunchasi. Mikro va makrotoponimlar. O'zbekiston toponimlari. Toponimik ma'lumotlarni to'plash. Toshkent vohasi toponimikasi. O'zbekiston viloyatlari toponimikasi.

**6-mavzu: O'lkani tarixiy va madaniy yodgorliklarini o'lkashunoslik manbasi sifatida o'rgauish**

Tarixiy va madaniy yodgorliklarni o'rganish. San'at o'lkashunosligi. Xalq san'atini o'rganish. Tasviriy san'atni o'rganish.

**7-mavzu: Arxetektura yodgorliklari o'lkashunoslik manbayi sifatida**

Arxitektura yodgorliklarini o'rganish. Mashhur kishilar yashagan joylarni o'rganish.

**8-mavzu: Maktab geografiya darslarida o'lkashunoslik**

Boshlang'ich sinflarda o'lkashunoslik ishlari. Yuqori sinflarda o'lkashunoslikka oid bilimlar.

**9-mavzu: Geografiya xonasi va uning ahamiyati**

Geografiya xonasi va uning ahamiyati. Geografiya xonasini jihozlash va loyihalash. O'quv va sinfdan tashqari paytlarda geografiya xonasidan foydalanish.

**10-mavzu: O'lka tabiatini o'lkashunoslik maqsadlarida o'rganish Sinfdan tashqari o'lkashunoslik ishlarini tashkil etish**

Joyning geologik tuzilishi, foydali qazilmalari va re'lefini o'lkashunoslik maqsadlarida o'rganish. O'lka iqlimini o'rganish. Ob-havoni o'rganish. Ob-havoni oldindan aytib berish. O'lkani gidrologik sharoitini o'rganish. O'lka tuprog'i, o'simligi va hayvonot dunyosini o'rganish. Fenologik kuzatishlar. O'lka tabiatini muxofaza qilishni o'rganish.

**11-mavzu: Geografik maydoncha**

Geografiya maydonchasining ahamiyati. Geografiya maydonchasini loyihalash. Maydonchada asbob va vositalarni o'rnatish, joylashtirish. Geografiya maydonchasidan foydalanish.

**12-mavzu: Maktab o'lkashunoslik ishlarida ekskursiya**

Ekskurtsiyaning turlari va uni tashkil etish. Hududning tabiiy geografiyasiga oid ma'lumotlarni to'plash va va ekskurtsiya uyushtirish. Hududning iqtisodiy geografiyasiga oid ma'lumotlarni to'plash va va ekskurtsiya uyushtirish. O'quv ekskurtsiyalari. O'lkashunoslik ekskursiyalari.

**13-mavzu: O'lkashunoslik sayohatlarida bajariladigan topografik ishlar**

Joy xaritasi bilan ishlash. Kompas bilan ishlash. Azimut va azimut bo'yicha yurish. Ufq tomonlarini osmon jismlariga qarab oraliq aniqlash.

| | |
|---|---|
| | Masofani o'lchash. Masshtab, masofani chizmada tasvirlash. Joyning surati, rejasi, rejalash usullari.<br><br>**14-mavzu: Geografik o'lkashunoslik muzeylarini tashkil etish**<br>O'lkashunoslikda muzey eksponatlari. Muzey turlari. O'lkashunoslik muzeylari tashkil etish. |
| 3 | **III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**<br>**(list of seminar topics)**<br>Amaliy mashg'ulotlarda talabalar olingan nazariy bilimlarni amalda mustahkamlash uchun turli mavzuli kartalar chizish, ularning shartli belgilarini o'qish, kartalarni tahlil qilish, kartalar asosida kesmalar tayyorlash, statistik ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish kabi vazifalarni bajaradilar va shunga muvofiq baholanadilar.<br>Geografik o'lkashunoslik kursida quyidagi mavzularda amaliy ishlar bajariladi.<br>1. O'rta Osiyolik buyuk allomalar asarlarida o'lkashunoslikka oid ma'lumotlar<br>2. Tabiiy sharoit o'lkashunoslik ob'ekti sifatida<br>3. O'lka geologiyasini o'lkashunoslik maqsadida o'rganish<br>4. O'lka tabiiy resurslarini o'lkashunoslik maqsadida o'rganish<br>5. O'lka iqlimini, suvlarini, tuproqlarini o'lkashunoslik maqsadida o'rganish<br>6. O'lka o'simliklarini o'lkashunoslik maqsadida o'rganish<br>7. O'lka hayvonot dunyosini o'lkashunoslik maqsadida o'rganish<br>8. O'lka aholisi va xo'jaligi o'lkashunoslik ob'ekti sifatida<br>9. O'lka tarixi va madaniyati o'lkashunoslik ob'ekti sifatida<br>10. Maktab o'lkashunosligida amaliy ishlarni tashkil etish. Xarita va kompas bilan ishlash. Joyda mo'ljal olish. Kartografik antipodni aniqlash<br>11. Geografik maydoncha bilan tanishish<br>12. Geografik maydonchadagi o'lchash anjomlari bilan ishlash: yog'in o'lchagich, psixrometr, flyuger, barometr, quyosh soati va boshqalar<br>13. Fenologik kuzatishlar olib borish, ob – havoni kuzatish<br>14. Ekskursiya tashkil etish bo'yicha reja va dastur ishlab chiqish. Tabiatga namunaviy ekskursiya uyushtirish<br>15. Muzeylarga sayohat uyushtiris<br><br>**IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR**<br>**(Independent study and independent work)**<br>Geografik o'lkashunoslik kursida mustaqil ta'lim auditoriyada o'qituvchi tomonidan o'tilgan har bir mavzu (ma'ruza va amaliy mashg'ulot mavzulari)talaba tomonidan darsdan tashqari vaqtda tavsiya etilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlardan hamda internet ma'lumotlaridan foydalangan holda muntazam ravishda qayta ishlanib, to'ldirilib, kengaytirilib borish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, talabalarning mustaqil ishlari amaliy ishlarga singdirilgan holda joriy nazorat shaklida baholanadi. |
| | Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:<br>1. O'z o'lkasi (viloyati, tumani, qishlog'i) haqida turli ma'lumotlar to'plash<br>2. O'z viloyati, tumani va qishlog'i toponimlarini o'rganish hamda ma'lumotlar to'plash<br>3. O'z o'lkasiga oid arxeologik, etnografik va toponimik ma'lumotlar jadvalini to'ldirish<br>4. Yashab turgan joyida kundalik kuzatishlar olib borish va ularni qayd etib borish<br>5. Fenologik kuzatishlar olib borish<br>6. Ekskursiya ob'ektlarini tanlash va tabiiy hamda iqtisodiy geografik ob'ektlarga namunaviy ekskursilar uyushtirish<br>7. O'lkashunoslik ishlarining yakuni bo'yicha xulosalar |
| 4 | **V. Ta'lim natijalari (Kasbiy kompetensiyalari)**<br>**Learning Outcomes (Professional Competences)**<br>"Geografik o'lkashunoslik" fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talabalar:<br>-o'z o'lkasi tabiati, xo'jaligi va aholisi, o'lkashunoslik ob'ektlari, maktab geografiyasida o'lkashunoslik, ularni tashkil etishga oid nazariy qarashlar ***haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak;***<br>-o'lkashunoslik ishlarini tashkil etish, uyushtirish va o'tkazish (to'garaklar, viktorinalar, ilmiy ma'ruzalar, ekskursiyalar uyushtirish), o'lkashunoslik muzeylarini tashkil etish haqidagi bilimlarni amaliyotga tadbiq etishni ***bilishi va ulardan foydalana olishi kerak;***<br>-maktab geografiya darslari jarayonida va sinfdan tashqari o'lkashunoslikni tashkil etish va o'tkazish, tabiiy geografik jarayonlarni kuzatish, tahlil qilish va prognoz qilish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.***<br><br>**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari**<br>**(Educational technologies and): methods:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| 5 | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar**<br>**(Requirements for obtaining loans):**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish. |

**6**

## VIII. TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI


**Asosiy adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston. 2017y.
2. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. –T.: O'zbekiston, 1996. – 369 b.
3. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot — pirovard maqsadimiz. –T.: O'zbekiston, 2000. – 495 b.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
5. Meshechko Ye.N. Geograficheskoe kraevedenie. -Minsk, Universitetskoe, 1986.
6. Baratov P. Yer bilimi va o'lkashunoslik. –T.: O'qituvchi, 1980.
7. Saidkarimova Z.S. Maktab o'lkashunosligi (ma'ruzalar matni). -T.: 1999.
8. Safiullin X.Z. Geograficheskoe kraevedaniye v obsheobrazovatelnoy shkole. -M.: 1979.

**Qo'shimcha adabiyotlar:**

8. Darinskiy A.V. Kraevedeniye. -M.: 1987.
9. Egamov Y.B., Egamov B.Y., Tovboyev Z.E. Yosh sayyoh –T.: Ilm ziyo, 2012, – 208 b.
10. Karpov V. Entsiklopedicheskiy slovar yunogo geografa – kraeveda. -M.: Prosveщenie, 1981.
11. Sayyohlik o'lkashunoslik to'garaklari. Dasturlar to'plami. –T.: Ilm ziyo, 2008. -160 b.
12. Xaydarov K., Nishonov S. Tabiatshunoslik asoslari va bolalarni atrof-muhit bilan tanishtirish. -T.: O'qituvchi, 1982.
13. Egamov B. Sayyohlik va o'lkashunoslik yo'nalishidagi maktabdan tashqari ta'lim tizimining tashkiliy-metodik asoslari. – T.: Ilm ziyo. 2010. – 128 b.
14. Qoraev S. O'zbekiston viloyatlari toponimlari. -T.: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2005, - 240 b.
15. Rahimbekov R.U., Dontsova Z.N., "O'rta Osiyo tabiatini geografik o'rgani tarixi" Toshkent. "O'qituvchi" 1982.
16. Hasanov H. "Sayyoh olimlar" Toshkent. "O'zbekiston". 1980.
17. Qoriev M. "O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi" Toshkent. "O'qituvchi" 1968.
18. Abdullaeva T. Geografik o'lkashunoslik. Toshkent.: "O'qituvchi", 1979.
19. Abdumalikov R. Turizm T. «O'qituvchi», 1978
20. Abduvohidov S. Maktab o'lkashunosligi (ma'ruzalar matni) Samarqand 2001 y.
21. Baratov P.B. «Yer bilimi va o'lkashunoslik» T. «O'qituvchi», 1990
22. Baratov P.B. O'zbekiston tabiiy geografiyasidan amaliy mashg'ulotlar. Toshkent.: "O'qituvchi", 2014.
23. 5-sinf. Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi. Toshkent.: "O'qituvchi", 2009.

**Elektron manbalar**

1. www.ziyo.net
2. www.unep.org
3. www.terdu.uz


**7**

**Termiz davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.**

Fanning o'quv dasturi Termiz davlat universiteti o'quv-uslubiy Kengashining 2024 yil "26" 06 dagi 11 -sonli yig'ilish bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

**8**

**Fan/modul uchun mas'ullar:**

**B.O.Abdumo'minov**- TerDU "Geografiya" kafedrasi mudiri

**N.A.Esanov**–TerDU "Geografiya" kafedrasi o'qituvchisi

**9**

**Taqrizchilar:**

**Q. Allanov** - TerDU "Geografiya" kafedrasi dotsenti, g.f.n.

**O'.Yakubov** - TerDPI "Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari" kafedrasi mudiri, dotsenti., g.f.n.